

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**O'ZBEK ADABIYOTIDA O'TKIR HOSHIMOV ASARLARINING O'RNI**

**Qoraboyeva Muxlisa Po'lat qizi**

*Termiz davlat universiteti*

*O'zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *O'tkir Hoshimov asarlarini badiiy adabiyotda tahlil qilish*

**Kalit so'zlar:** *Nafosat tuyg'usi, samimiyyat, ma'naviy olami, ob-razzlarning fazilatlari, inson ruhiyati.*

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov noyob istedod sohibidir. U o'zining ajoyib maqolalari, hikoyalari, qissa va romanlari bilan o'zbek kitobxonlaring qalbidan joy olgan . O'tkir Hoshimov ilk ijodini ocherk yozishdan boshlagan. Talabalik yillarida " Po'lat chavandoz" nomli oche-rklar to'plami chop etildi. O'tkir Hoshimov bir qancha sermazmun hiko-ya yaratib, hikoya janrida barakali ijod qilgan.Uning "Muhabbat", "Urushning so'nggi qurboni" , "Dehqonning bir kuni " kabi hikoyalari o'zbek hikoyachiligining rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. "Dehqonning bir kuni " hikoyasida oddiy paxtakor oilaning bir kunlik hayoti tasvirlangan. "Urushning so'nggi qurboni " hikoyasida ona dardi, ham urush qiyonoqlari , ham o'z davrining ijtimoiy holati aks ettirilgan . Yozuvchi inson ruhi- yatiga , ma'naviyatiga bag'ishlangan asarlarni ham yaratdi . Bular "Dunyoning ishlari ", " Bahor qaytmaydi " kabi qissalaridir.

Adib ilk qissalarini yaratishi bilan Abdulla Qahhor, Said Ahmaddek yo- zuvchilar e'tiboriga tushdi. O'tkir Hoshimov " Dunyoning ishlari " qissa- si bilan kitobxonlarning qalbini larzaga keltirdi. Bu asar ona haqida ,ona- larning farzandi uchun bo'lgan cheksiz mehri tog'risidagi o'ziga xos qasidadir. Har bir kitobxon bu qissani o'qir ekan, o'z onasining qandaydir fazilatini topadi. Adib bu asarni nafaqat o'z onasi , balki butun dunyo onalariga bag'ishlaganini qissa muqaddimasida aytib o'tgan.

"Bahor qaytmaydi "qissasida esa inson qalbidagi nozik bir tuyg'u- muhab- bat tuyg'usining qadriga yetmagan, do'sti orqali shon - shuhratga erish- gandan so'ng esa do'stiga ,yoriga xiyonat qilganligi uchun oxir oqibatda o'zining hayoti ham barbod bo'lgan qahramonning taqdiri yoritilgan. Adibning asari hayotiyligi , soddaligi bilan e'tiborlidir. O'tkir Hoshimov insonning ma'naviy olamini , qalb kechinmalarini kuzatib asarlarida ham shu kayfiyatni aks ettirganini o'qib sezishimiz mumkin. Adibning tajribasi boyigan sari katta janrlarda ham qalam tebratdi. Yozuvchining ijo- dida " Nur borki soya bor " , " Ikki eshik orasi" , " Tushda kechgan umr-lar" kabi romanlari kitobsevarlar uchun alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Yozuvchining "Nur borki,soya bor" romanida jamiyatning ijtimoiy hayoti- dagi illatlarni , turg'unlikning mohiyatini ochish asnosida davrning muhim ma'naviy -axloqiy masalalarini ko'tardi. Adibning bolalik davri urush yil- larida kechgan. Urushning og'ir mashaqqatlarini ko'rganligi uchun o'zi- ning hikoyalari , qissalari va romanlarida ochiq -oydin aks ettirib bergan. Shu jumladan "Ikki eshik orasi " romanida urush tufayli insoniyat boshi- ga tushgan azob- uqubatlar , chigal muammolar aks ettirilgan . Adib mu- rakkab taqdirlar misolida o'z xalqining tarixiy

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

qismatini mahorat bilan umumlashtirib bergen. Urush davrida xalqning og'ir hayotida kishilar bir -biriga yordam berib, bu sinovli kunlarda bir-biriga tirkak bo'lgan paytda, ayrim insonlar o'z manfaati uchun lavozimidan, mavqeyidan foydalanib, insonlarniing , xalqimizning hayotiga og'ir kunlarni solganligini adib asar- larida ham aks ettirgan. Yozuvchi bu asari bilan qalamga olgan obraz- larning fazilatlari -mardligi , matonati , vatanparvarligi va sabr -bardoshi bilan kitobxonlarga so'zlaydi. Romanda insonlarning taqdiri naqadar mu- kammal ekanligini ajoyib tarzda yoritib bergen. O'tkir Hoshimovning qal- bida , hayotida og'ir jarohat qoldirgan urushni "Tushda kechgan umrlar " romanida ham bevosita aks ettirgan.Bu roman o'tgan asrda xalqimiz bo- shiga tushgan fojialar , adalatsizliklar va buning oqibatida toptalgan taq- dirlar haqida. Bu romanda garchi urush tugasa-da, uning qora ildizlari , ofatlari kishilarning hayotida ta'sirini ko'rsatmasdan qolmasligi yoritilgan.

O'tkir Hoshimov benavis so'z ustasi. Adibda nafosat tuyg'usi behad kuch- li. U har bir asarlarida ijobiy qahramonlarni oliyjanob xislatlarga ega, qalbi pok, nafis tuyg'ularga boy, o'ta ta'sirchan hissiyotli odamlar sifatida gav- dalantiradi. Chinakam badiiy asar o'quvchi ruhiyatini yuksaltiradi. Asar qah- ramoni yig'lasa , qo'shilib yig'laydi, iztirob cheksa u ham iztirobga tushadi. Kitobxon asar qahramonlari bilan xayolan ham birga bo'ladi . O'tkir Hoshimov o'zi orzu qilganidek kitobxonlar uchun ana shunday asarlar yaratib bera oldi. Nazarimda, adibning asarlari kitobxonlar uchun birdek sevimlidir. Har safar kitobxonlar adibning asarlarini qayta-qatta o'qisa ham, birinchi marta o'qigandek taassurotda bo'ladi.O'tkir Hoshimov asar- larining ahamiyati o'zbek adabiyotida g'oyat muhimdir. Adibning asarlari tarbiyaviy ahamiyati bilan, o'z davrining ijtimoiy muammolarini yoritishi bilan qiymatlidir. Adibning asarlarida aks ettirilgan ma'naviy - axloqiy muammolar , g'oyalar bugungi kunimizda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Yozuvchining asarlarida samimiyl kayfiyat , haqiqat ufurib turadi. O'tkir Hoshimov o'z ijodini jamiyat ravnaqiga, xalqimiz ma'naviyatini yanada yuk- saltirishga, odamlarning muammo, quvonch va dardlarini o'z asarlarida badiiy talqin qilib ,yangi o'zbek adabiyoti, xususan, nasr taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Shuningdek,adibning maqolalari, hikoya, qissalaridan tortib romanlarida ijtimoiy mushohadalar, fojealar, qabohatlar haqida qalam tebratsa-da, nafosat tuyg'usi tark etmaydi, barcha lavhalarida samimiyat aks-sado berib turadi. O'tkir Hoshimovning asarlari nafaqat kitobxonlarning ,balki tomoshabinlarning ham qalbidan joy oldi. Uning bir qancha asarlari ekranlashtirilgan. "To'ylar muborak " , "Inson sadoqati", "Qatog'on", "Hazon bo'lgan bahor ", "Vijdon dorisi" kabi drama va komediyalari respublika teatrlarida sahnaga qo'yildi, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi. Adibning " To'ylar muborak " komediyasi ham telefilm sifatida, ham teatr sahnasi sifatida barcha tomoshabinlar uchun sevimlidir. Bu komediyada ko'ngilchanligi tufayli o'z to'yi kuni ko'p odam- larga yordam beraman deb , to'yiga zo'rg'a yetib keladigan kuyov haqida hikoya qilinadi. Garchi bu asar komediya bo'lsa ham, uning tub mazmuni insoniylik fazilatlarini, o'zbek xalqining urf- odatlarini namoyish qiladi. "Inson sadoqati", "Qatag'on" dramalari inson qalbi iztiroblari ifodasi, ehtiroslarga boyligi jihatidan adibning eng yaxshi qissa va romanlariga ohangdoshdir. Shuningdek , bunday zo'ravonliklar oldida bo'yin egmagan , kishan

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

kiymagan mardona shaxslar obrazi ham ozmi-ko'pmi yaratilgan. "Qatag'on" ayni shu mardonovor ruhi bilan e'tiborni tortadi. Biz qachon kitobni sevib o'qiyimiz ? Asarda qahramonlar bilan darddosh, baxtdosh bo'la olsakkina... O'tkir Hoshimov kitobxonlar uchun ana shunday sevib o'qiladigan asarlar yaratdi. Uning 60 ga yaqin kitoblari ikki million nusxdadan ortiq chop etilib, nafaqat o'zbek kitobxonlari , balki chet tillariga tarjima qilinib , chet eldag'i kitobxonlarning ham e'tiborini qozondi. Shuningdek, adibning asari eng o'qishli asar bo'lib, xalq orasida qo'lma-qo'l o'qiladi.O'tkir Hoshimovning ijodiy faoliyatida yaratilgan har bir asari milatning ma'na- viyatini, inson ruhiyatini falsafiy mushohada asosida teran tahlil qilgan. Adibning asarlari kitobxonlar uchun ma'naviy meros sifatida umrboqiyidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'tkir Hoshimov "Nur borki,soya bor" romani. T.2016.288-bet.
2. U. Normatov maqolasi.
3. Tafakkur.net.sayti.